

Qashqadaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Qashqadaryo viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tumanlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 5273,8 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 5087,1 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 172,7 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 14,0 mlrd so'mni tashkil qildi.

Qashqadaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tumanlar kesimida

2026-yilning yanvar-mart oylarida tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Kitob (497,3 mlrd so'm), Chiroqchi (472,4 mlrd so'm), Koson (452,4 mlrd so'm), G'uzor (413,8 mlrd so'm) va Dehqonobod (390,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Qarshi shahar (98,0 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (24,8 mlrd so'm) va Ko'kdala tumanini (270,1 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	5273,8	104,8
Qarshi shahar	98,0	111,1
Shahrisabz shahar	24,8	106,7
G'uzor tumani	413,8	108,5
Dehqonobod tumani	390,7	104,8
Qamashi tumani	313,1	103,6
Qarshi tumani	348,3	101,4
Koson tumani	452,4	108,7
Kitob tumani	497,3	103,5
Mirishkor tumani	284,8	104,8
Muborak tumani	292,4	105,3
Nishon tumani	344,8	106,3
Kasbi tumani	343,6	106,4
Ko'kdala tumani	270,1	101,7
Chiroqchi tumani	472,4	103,6
Shahrisabz tumani	389,6	102,8
Yakkabog' tumani	337,7	103,4

Tumanlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahar (111,1 %), Koson (108,7 %), G'uzor (108,5 %), Shahrisabz shahar (106,7 %), Kasbi (106,4 %), Nishon (106,3 %) va Muborak (105,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa tumanlarga nisbatan Qarshi (101,4 %), Ko'kdala (101,7 %), Shahrisabz (102,8 %), Yakkabog' (103,4 %) va Kitob (103,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2026-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 4977,9 mlrd so'mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 262,0 mlrd so'mni (125,9 %), chorvachilik mahsulotlari 4715,9 mlrd so'mni (103,3 %) tashkil qildi.

Tumanlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Chiroqchi (456,4 mlrd so'm), Koson (438,4 mlrd so'm), Kitob (428,7 mlrd so'm), G'uzor (395,7 mlrd so'm) va Dehqonobod (380,9 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Qarshi shahar (90,5 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (24,2 mlrd so'm) va Ko'kdala tumanini (244,9 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahar (110,9 %), Koson (108,0 %), Nishon (107,3 %) va G'uzor (107,1 %) tumanlarida qayd etildi. Ko'kdala (102,5 %), Shahrisabz (102,6 %) va Qamashi (102,9 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 86,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,6 % i fermer xo'jaliklariga, 4,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Tumanlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Chiroqchi (444,7 mlrd so'm), Kitob (401,3 mlrd so'm), Koson (398,9 mlrd so'm), G'uzor (382,8 mlrd so'm), Dehqonobod (379,9 mlrd so'm) va Shahrisabz (354,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Qarshi shahar (88,0 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (23,1 mlrd so'm) va Ko'kdala tumanini (234,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahar (111,5 %), G'uzor (105,8 %), Nishon (105,2 %), Muborak (104,6 %), Shahrisabz shahar (104,1 %), Dehqonobod (103,6 %), Kitob (103,5 %) tumanlarida qayd etildi. Ko'kdala (101,4 %), Qarshi (101,4 %), va Qamashi (101,6 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 49,1 ming tonna go'sht, 164,0 ming tonna sut, 100,3 mln dona tuxum, 80,1 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 0,5 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni, sog'ib olingan sut – 105,1 % ni, olingan tuxum – 100,1 % ni, olingan qorako'l teri – 115,7 % ni hamda ovlangan baliqlar – 103,7 % ni tashkil qildi.

2026-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 7,4 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 8,5 % i fermer xo'jaliklari, 89,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2026-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-mart 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	49,1	102,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3,6	143,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	44,3	100,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,2	120,4
Sut, ming tonna	164,0	105,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	13,9	138,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	146,3	101,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,8	167,3
Tuxum, mln. dona	100,3	100,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	8,2	114,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	61,2	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	30,9	95,2
Jun, tonna	-	-
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	-	-
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	-	-
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-
Qorako'l teri, ming dona	80,1	115,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	12,6	158,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	62,5	110,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,0	111,3
Baliq, ming tonna	0,5	103,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,3	103,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	-	-
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,2	100,9

Shu bilan birga, olingan tuxumning 8,2 % i fermer xo'jaliklariga, 61,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 30,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 15,8 % i fermer xo'jaliklariga, 78,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 58,2 % i fermer xo'jaliklariga, 4,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 37,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Tumanlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Qashqadaryo viloyati	49106	163981	100318
Qarshi shahar	1147	634	1370
Shahrisabz shahar	196	1192	1195
G'uzor tumani	4062	12788	6324
Dehqonobod tumani	4664	6133	2884
Qamashi tumani	2930	10296	11066
Qarshi tumani	3235	11850	5049
Koson tumani	4056	14725	9038
Kitob tumani	4032	16075	5356
Mirishkor tumani	2548	10084	3321
Muborak tumani	2678	10090	3170
Nishon tumani	3610	6449	3143
Kasbi tumani	2698	15520	5709
Ko'kdala tumani	2439	8282	4165
Chiroqchi tumani	4528	17175	5945
Shahrisabz tumani	3212	13864	20890
Yakkabog' tumani	3071	8824	11693



Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Tumanlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Koson (39,6 mlrd so'm), Kasbi (30,3 mlrd so'm), Kitob (27,4 mlrd so'm), Yakkabog' (23,8 mlrd so'm) va Nishon (22,9 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Dehqonobod tumanini (1,0 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (1,1 mlrd so'm) va Qarshi shaharini (2,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Koson (2,1 m.), G'uzor (150,8 %) tumanlari, Kasbi (145,5 %), Qamashi (127,9 %) va Ko'kdala (127,6 %) tumanlarida qayd etildi. Qarshi (77,8 %), Shahrisabz (80,3 %) Qarshi (103,0 %) va Qarshi shahar (96,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Tumanlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	4150	125,8
Qarshi shahar	136	94,3
Shahrisabz shahar	28	104,5
G'uzor tumani	261	2,4 m.
Dehqonobod tumani	-	-
Qamashi tumani	187	136,3
Qarshi tumani	224	34,5
Koson tumani	1207	5,5 m.
Kitob tumani	292	52,0
Mirishkor tumani	104	115,4
Muborak tumani	548	152,3
Nishon tumani	217	2,3 m.
Kasbi tumani	520	2,4 m
Ko'kdala tumani	45	154,3
Chiroqchi tumani	57	111,5
Shahrisabz tumani	43	11,9
Yakkabog' tumani	281	115,7

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Koson tumani (29,1 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Muborak (13,2%), Kasbi (12,5%),



' Yakkabog' (6,8 %) va G'uzor (6,3 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Shahrizabz shahar (0,7 %), Shahrizabz (1,0 %) va Ko'kdala tumanida (1,1 %) kuzatildi.

2025-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Koson (5,5 m.), G'uzor (2,4 m.), Kasbi (2,4 m.), Nishon (2,3 m.), Ko'kdala (154,3 %), Muborak (152,3 %), Qamashi (136,3 %) va Yakkabog' tumanida (115,7 %) qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026-yilning 1-aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1646,4 ming boshga yetdi, (2025-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 6,5 % ga kam), sigirlar 550,2 ming boshga (4,9 % ga kam), qo'y va echkilar 5084,0 ming boshga (0,2 % ga ko'p), parrandalar 6652,2 ming boshga (5,0 % ga ko'p) yetdi.

2026-yilning 1-aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 646,4	93,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	113,3	95,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 506,6	92,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	26,5	134,8
shundan sigirlar	550,2	95,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	51,7	102,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	489,1	94,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,4	124,8
Qo'y va echkilar	5 084,0	100,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	482,2	103,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4 329,1	100,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	272,7	90,3
Otlar	37,5	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6,1	102,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	29,4	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,0	108,1
Parrandalar	6 652,2	105,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	516,9	121,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 029,5	111,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 105,8	78,8



2026-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 9,4 % i fermer xo'jaliklariga, 88,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 9,5 % i fermer xo'jaliklariga, 85,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 7,8 % i fermer xo'jaliklariga, 75,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 16,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2026-yilning 1-aprel holatiga tumanlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Qashqadaryo viloyati	1646371	5084038	6652221
Qarshi shahar	4756	18979	87947
Shahrisabz shahar	9252	9990	85252
G'uzor tumani	95683	590147	571982
Dehqonobod tumani	97262	821357	218177
Qamashi tumani	122240	254560	512856
Qarshi tumani	42445	67329	113161
Koson tumani	204934	687463	727625
Kitob tumani	139247	147116	606283
Mirishkor tumani	102814	443385	319940
Muborak tumani	118102	567947	266118
Nishon tumani	139333	352063	380708
Kasbi tumani	139842	214676	304551
Ko'kdala tumani	47008	190930	219599
Chiroqchi tumani	154601	413129	409564
Shahrisabz tumani	112471	143704	1241745
Yakkabog' tumani	116381	161263	586713



V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
Sh.Toyloqov
75 221-44-36 (1710)

Manzil:
Qarshi sh, Mustaqillik shoh
ko'chasi 2b
